

Uzbekistan Airways va Integro Technologies PANORAMA COS yordamida ekipajlarni rejalashtirishni optimallashtirmoqda

2026 2 Aprel

Uzbekistan Airways va “Integro Technologies” kompaniyasi uzoq muddatli rejalashtirish va ekipaj a’zolarini tezkor boshqarishni optimallashtirish bo’yicha yechim hisoblangan PANORAMA COS (Crew Optimization System) mahsulotini joriy etish to’g’risida shartnoma imzoladilar.

Uzbekistan Airways – O‘zbekistonning milliy aviatashuvchisi va Markaziy Osiyodagi yetakchi aviakompaniyalardan biri bo‘lib, Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning 100 dan ortiq yo‘nalishlari bo‘yicha qatnovlarni ta‘minlaydi. 2025-yilda aviakompaniya rekord darajadagi 6,6 million yo‘lovchini tashidi va o‘sha yilning noyabr oyida o‘z tarixidagi eng yirik buyurtmani – Airbus A321neo samolyotlarini yetkazib berish davom etayotgan bir paytda, 22 ta yangi keng fyuzelyajli Boeing 787-9 Dreamliner havo kemasiga buyurtma berdi. 2030-yilga borib, barqaror o‘shish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish strategiyasi doirasida Uzbekistan Airways havo kemalari parki kamida ikki barobarga ko‘payishi kutilmoqda.

Tezkor o‘shishni ta‘minlash va operatsion samaradorlikni oshirish maqsadida Uzbekistan Airways innovatsiyalar va professionallikka tayanmoqda. O‘zining parvozlarda maktabida yuqori malakali mutaxassislarni uzluksiz tayyorlash bilan bir qatorda, aviapark va qatnovlar tarmog‘ining faol kengayishi eng zamonaviy raqamli yechimlarni talab etadi. Aynan shuning uchun aviakompaniya ekipajlar ishini rejalashtirish bo‘yicha yanada mukammal va yuqori samarali dasturiy ta‘minotni joriy etmoqda. PANORAMA COS – qatnovlar soni ortib borayotgan bir sharoitda, aviatsiya qonunchiligining barcha talablariga, xalqaro IOSA xavfsizlik standartlariga qat’iy rioya qilgan holda hamda xodimlar o‘rtasida ish yuklarni mutanosib taqsimlanishini ta‘minlab, resurslarni mohirona boshqarish imkonini beruvchi ilg‘or tizimdir.

Yuqorida qayd etilgan omillarni va raqamli yechimlarni takomillashtirish zaruratini hisobga olgan holda, Uzbekistan Airways ekipaj a'zolarini ham tezkor boshqarish, ham ularni istiqbolli rejalashtirishning yangi vositalarini joriy etmoqda. Zamonaviy PANORAMA COS yechimi asosida jarayonlarni tashkil etish eng asosiysi – keskin o'sish davrida, shuningdek, uning sur'atlari barqarorlashganidan so'ng maksimal iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi.

PANORAMA COS preskriptiv sun'iy intellektdan foydalanadi, u har bir vaqt oralig'ida yuzlab bir vaqtning o'zida amal qiluvchi cheklovlarni hisobga olgan holda ekipajlarni tayinlashning maqbul rejasini ishlab chiqadi. Mahsulotning joriy etilishi "Uzbekistan Airways"ga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- ekipajlar rejasini tuzish muddatlarini minimal ish vaqtigacha optimallashtirish;
- rejalashtirish jarayoni va ekipajlarning ish vaqtidan foydalanish samaradorligini oshirish;
- tarixiy ma'lumotlar va xodimlarning o'z xohish-istaklarini hisobga olgan holda, belgilangan yo'nalishlar bo'yicha ekipaj a'zolari o'rtasida mutanosib va adolatli tayinlovni ta'minlash, bu esa xodimlarning mehnat sharoitlaridan qoniqishini oshiradi;
- jadval loyihasini, shuningdek, ekipaj a'zolarining yo'qligi/bandligini hisobga olgan holda xodimlarga bo'lgan ehtiyojni hisoblab chiqish;
- oraliq aeroportlarda tunab qolish bilan bog'liq aviaqatnovlar zanjirini (peyringlarni) va aeroportlar kesimida talab etiladigan mehmonxona xonalari fondining umumiy miqdorini hisoblab chiqish;
- aviaqatnovlar kechikkanda yoki favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda real vaqt rejimida ekipajlarni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash.

Joriy etishning birinchi bosqichida qiymatni boshqarish funksiyasi, shuningdek, ekipaj a'zolarining harakatlanish yo'nalishlarini, shu jumladan turli xil parvoz turlarini rejalashtirish imkoniyati bilan peyring jarayoni optimallashtiriladi. Ikkinchi bosqich rosteringni (jadval tuzish) optimallashtirishni qamrab oladi, bunda xodimlar bo'yicha vaqtinchalik va doimiy amal qiluvchi belgilar, tarixiy ma'lumotlar, shaxsiy xohish-istaklar va boshqa ko'plab parametrlar hisobga olinadi.

"Uzbekistan Airways keng ko'lamlı transformatsiya davrini boshidan kechirmoqda: biz aviaparkni faol ravishda kengaytirmoqdamiz, yangi yo'nalishlarni ochmoqdamiz va o'z aviatsiya maktabimiz negizida kadrlarni tayyorlamoqdamiz. Bunday sharoitda

ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish nafaqat afzallik, balki zaruratga aylanadi. PANORAMA COS tizimini joriy etish – bu uchuvchilar va kabina ekipajlarini samarali hamda shaffof rejalashtirishni yo'lga qo'yish, ish yuklamasining adolatli taqsimlanishini ta'minlash va jadvaldagi o'zgarishlarga tezkor munosabat bildirish imkonini beruvchi strategik yechimdir. Biz Integro Technologies kompaniyasining tajribasi va texnologiyalari Uzbekistan Airways'ga operatsion samaradorlikning yangi darajasiga chiqishiga yordam berishiga ishonchimiz komil”, – deya ta'kidlaydi “Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruv raisining parvozlarni tashkil etish bo'yicha o'rinbosari Shaxzod Ikramov.

“Aviakompaniya bir necha yil ichida o'z parkini ikki barobarga oshirib, o'nlab yangi yo'nalishlarni ochganida, ekipajlarni rejalashtirish murakkabligi geometrik progressiyada o'sib boradi, chunki rejalarni tuzish variantlari bir necha barobarga ko'payadi. Biz PANORAMA COS tizimini aynan shunday vazifalar uchun yaratganmiz: tizim preskriptiv sun'iy intellekt yordamida bir vaqtning o'zida yuzlab parametrlarni hisobga olgan holda maqbul yechimlarni topadi. Biz Uzbekistan Airways kompaniyasi tajribamizga ishonch bildirayotganidan mamnunmiz va hamkorlikdagi ishlarimiz aviakompaniyaga joriy etishning dastlabki bosqichlaridayoq sezilarli natijalar keltirishiga ishonamiz”, – deydi “Integro Technologies” kompaniyasining biznesni rivojlantirish bo'yicha direktori Anastasiya Korniyenko.